

SOVET HOKIMIYATINING SO'NGGI BOSQICHIDA SURXONDARYO VILOYATI MADANIYAT MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI VA FAOLIYATI

Xudayberdiyeva Gulnora Xursandovna

Termiz davlat universiteti "Davlat va huquq asoslari" kafedrası

katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

xudayberdiyevagulnora@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0008-7111-4603>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya. Maqolada asosan 1920-1990 yillarda O'zbekistondagi, shu jumladan Surxon voxasidagi madaniy jarayonlar va Sovet hokimiyatining yuritgan siyosati yoritib berilgan. Sovet davlati hukumronligi davrida milliyligimizni inkor etishga qaratilganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Milliy-madaniyat, mafkura, hokimiyat, jamiyat, ijtimoiy hayot, ta'lim, fan, tarix, partiya, ma'naviy-madaniyat, jadidchilar, qatag'on, maqsad, urush, gimnaziya, diniy aqidalar.

Аннотация. В статье описываются культурные процессы в Узбекистане в 1920-1990 годах, сущность проводимых советским государством реформ в культурной сфере и ее цели. После становления советской власти в Туркестане классовый подход, направленный на отрицание национального духовного наследия стал приоритетным.

Ключевые слова: Национальная культура, идеология, правительство, общество, социальная жизнь, наука, советская, история, партия, духовная культура, коммунистическая идеология, цель, война, гимназия, религиозные удержания.

Abstract: The article describes the cultural processes in Uzbekistan in 1920-1990, the essence of the reforms carried out by the Soviet state in the cultural sphere and its goals. After the establishment of Soviet power in Turkestan, the class approach aimed at denying the national spiritual heritage became a priority.

Keywords: National culture, ideological power, society social life ducation science history party culture culture Jadids repression goal, war, gymnasium, religious beliefs.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Sovet mustabid tuzumida mavjud holatlar, shu jumladan madaniyat sohasidagi, san'at sohasidagi o'ziga xoslikni ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berishdir. Chunonchi buyuk tariximizga e'tibor qaratsak o'sha davrdagi yutuqlarimiz va kamchiliklarni tahlil qilish bizning kelajagimiz uchun zamin yaratadi. Sovet mustabid tuzumi davrida hukmron bo'lgan kommunistik mafkura milliy madaniyatimiz rivojiga salbiy ta'sir qildi, chunki biz o'zligimizni unutishimiz uchun zamin bo'ldi. Bu holat esa tariximizdagi eng achinarli xoladir.

Hukmron mustabid tuzum tariximizdan, madaniyatimizdan, milliyligimizdan qolaversa o'zligimizdan mahrum qilishga harakat qildi. Agar yuqorida keltirgan asoslarimiz, biz uchun salbiy bo'lgan harakatlar davom etaverganda, millatimiz o'zligidan, tarixidan, milliyligidan, qadriyatlardan mahrum bo'lgan olomonga yoki oddiy qo'g'irchoqqa aylanib qolishi oddiy hol bo'lib qolardi.

Sovet tuzumi davrida O'zbekiston madaniyati, tarixini xolisona yaratish hozirgi davrning eng asosiy vazifasiga aylandi va yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu maqola asosan tarixiy-metodlar, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, shaffoflik tamoyillari asosida yoritilgan.

Maqola uchun birlamchi ma'lumotlarni Surxondaryo viloyat arxivining 45-, 86-, 315-, 454-fondlaridagi hujjatlar tashkil etadi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati raqamlarda (1920-1991

yillar)” statistik to‘plami ma’lumotlaridan ham foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Sovet hokimiyatining so‘nggi bosqichida Surxondaryo viloyati madaniyat muassasalari faoliyatida institutsional rivojlanish jarayonlari kuzatilgan. Xususan, kutubxonalar, madaniyat uylari, klub muassasalari, teatrlar va badiiy havaskorlik jamoalari sonining ortishi madaniyat sohasining hududiy tarmog‘ini kengaytirishga xizmat qilgan. Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim tumanlarda kutubxonalar va klub muassasalari sonining ko‘payishi, yangi madaniyat obyektlarining tashkil etilishi hamda mavjud muassasalarning faoliyat ko‘lamining kengayishi kuzatilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat muassasalari nafaqat madaniy xizmat ko‘rsatish markazi, balki sovet mafkurasini targ‘ib etish vositasi sifatida ham faoliyat yuritgan. Kutubxonalarda tashkil etilgan siyosiy-ma’rifiy tadbirlar, madaniyat uylaridagi targ‘ibot ishlari, teatr va badiiy jamoalar repertuaridagi mafkuraviy yo‘nalishdagi asarlar ushbu holatning yaqqol namunasidir. Shu sababli madaniyat muassasalarining rivojlanishi ko‘proq davlat siyosati va mafkuraviy talablar bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan.

Biroq 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakatda kechgan qayta qurish va oshkoralik siyosati madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Natijada milliy madaniyat, folklor, urf-odat va tarixiy merosga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, Boysun, Sho‘rchi, Oltinsoy, Uzun va boshqa tumanlarda faoliyat yuritgan folklor-etnografik hamda ashula-raqs ansambllari milliy madaniy merosni asrash va targ‘ib etishda muhim rol o‘ynadi. “Boysun” folklor-etnografik ansamblining respublika va xalqaro festivallardagi muvaffaqiyatlari Surxondaryo madaniyatining xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari viloyatda teatr san’ati, badiiy havaskorlik harakati va xalq ijodiyoti rivojlanishida sezilarli yutuqlarga

erishilganligini ko‘rsatadi. Mannon Uyg‘ur nomidagi musiqali drama teatri hamda xalq teatrlari faoliyati aholi madaniy ehtiyojlarini qondirish va badiiy-estetik tarbiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. 1990–1991-yillarda davlat tili to‘g‘risidagi qonunning amaliyotga joriy etilishi madaniyat muassasalari faoliyatida milliylik omilining kuchayishiga olib kelgan.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida sovet hokimiyatining so‘nggi yillarida madaniyat muassasalari faoliyati ziddiyatli xususiyat kasb etdi. Bir tomondan, ularning moddiy bazasi mustahkamlanib, tarmog‘i kengaydi va madaniy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari oshdi. Ikkinchi tomondan, mazkur muassasalar faoliyati uzoq vaqt davomida mafkuraviy nazorat ostida bo‘ldi. Shunga qaramay, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida milliy madaniy qadriyatlarni tiklash, folklor an‘analarini rivojlantirish va madaniy merosni asrash borasida muhim natijalarga erishildi. Bu jarayonlar keyinchalik mustaqillik davri madaniy taraqqiyotining shakllanishiga zamin yaratdi.

XX asrning 80-yillari O‘zbekiston madaniy hayotida erishilgan yutuqlar ham e’tiborga molikdir. Teatr, musiqa, adabiyot, tasviriy san’at va kino sohalarida yirik muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. San’atkorlarning faoliyati va ularning yaratgan asarlari milliy madaniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Umuman olganda, Sovet davrida O‘zbekistonda madaniy hayotning rivojlanishi ikki xil yo‘nalishda kechdi: bir tomondan, yangi ta’lim tizimlari va madaniy inshootlar tashkil etildi, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar va an‘analar cheklangan va ularning rivojlanishi qiyinlashtirilgan. Bu davrning madaniy merosi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega, chunki u tarixiy saboq sifatida o‘zbek madaniyatining kelgusi rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

1980-yillarda hukmron sovet mafkurasi tazyiqi va iskanjasi ta’siridan respublikaning madaniy jarayoni chetda qolmagan, albatta. Madaniy hayotimizda kutilmagan qanchadan-qancha sinovlariga, sovet tuzumining tazyiqlariga ro‘para bo‘lganligi shubhasiz. Bu

jarayonga baho beradigan bo'lsak, madaniy-ma'rifiy sohada vaziyat taqozosi bilan vaziyat taqozosi bilan sovet davlati siyosati va mafkurasi talablarini bajarishga majbur etildilar. Demak sovet davlati o'z g'oyalarini singdirish maqsadida albatta madaniyat muassasalari faoliyati juda qul kelardi. Bu yillarda kutubxonalar, teatrlar, kino, klub kabilar faoliyatidan unumli foydalandi.

1980-yilda bolalarni a'zo qilish tashviqot ishlari alohida e'tiborga loyiq,, 1979-yil 1392 ta bo'lgan bo'lsa a'zo bo'lgan bolalar soni 1980-yilda 14181 ga yetdi. Ayniqsa Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Sariosiyo tumanlarida bu ko'rsatkich jadal o'sib bordi. Shu yili Sho'rchi tumani bolalar kutubxonalarida "Lenin va bolalar" she'riy tadbirlari o'tkazildi, bundayin tadbirlar "pioner uylari"ga ham keng tarqaldi[1:102].

1980-yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani bo'yicha kutubxonalarida o'qilgan kitoblar soni 373998 ta bo'lgan bo'lsa, 1979-yilda 45969 ta edi. Bu yillar viloyat bo'yicha yetakchi kutubxonalar quyidagilar edi: Qumqo'rg'on tumanida 6 ta, Boysunda 2 ta, Jarqo'rg'onida 2 ta, Shurchida 2 ta[1:103].

1981-yil Lenin yo'li (hozirgi Qiziriq tumani) rayoni madaniyat uyi xodimlari KPSS XXVI syezdi tarixiy qarorlaridan va O'zbekiston Kommunistik partiyasining XX syezdi qarorlarini izchillik bilan amalga oshirib, Lenin yo'li madaniyat uyi qoshida bir qator to'garaklar tashkil etildi, ya'ni badiiy havaskorlik to'garagi (rahbari K.Xo'jayeva), shaxmat-shashka to'garagi (rahbari S.Aminov), rubob to'garagi rahbari (rahbari Sh.Ergashyev), doira to'garagi (rahbari B.Boyqo'chqorov), raqs to'garagi (rahbari K.Xo'jayeva), akordion to'garagi (rahbari N.Boyqo'chqorov)lari. Bu 7 ta to'garakka 47 nafar yoshlar faol qatnashdi. Rayon madaniyat uyi va rayon xalq maorifi bo'limi bilan hamkorlikda 1981-yilning fevral oyida maktablararo "Ashula bayrami" tanlovi o'tkazildi.

1980-1983-yillarda Lenin yo'lida kutubxonalar bilan klublar soni ham o'sdi: kutubxonalar 9 tadan 25 taga, klublar esa 8 tadan 12 taga yetdi[2:1]. Shuningdek, madaniyat bog'lari 5 ta, ansamblar 5 ta qatnashchilari esa 70 nafardan 180 taga

yetdi[2:2].

1982-yilda mehnatkashlarning turmush tarzini yaxshilash maqsadida Lenin yo'li rayonining "Lenin" nomli madaniyat va istirohat bog'ida 3 ta attraksionlar mavsumli ishlab turdi. Attraksion 8400 rubl o'rniga 8000 rubl daromad qilgan. Rassomlar ijodi bilan 1,5 ming rubllik daromad ko'rish belgilangan edi. Ammo, 5,7 % qilib reja bajarildi. Bu rejani ortig'i bilan bajarishda rassomlardan Y.Alibayev, A.Diyarov, A.Omon Turdiyev, B.Aminovlarning xizmatlari katta bo'ldi[3:13].

Barcha hududlardagi sovet hukumati talablaridan kelib chiqib madaniyat uylari hafta davomida har kun ishlashi ta'minlansin degan talablar qo'yildi. Ammo hamma hududda ham bir tekis talablar amalga oshirilmadi. Salbiy natija berayotgan muassasalar rahbarlariga esa jazolar belgilandi. Masalan, 1983-yil KPSS XXVI syezdi qarorlaridan kelib chiqib madaniyat muassasalari faoliyatiga sovuqqonlik bilan qaragan mudirlardan Lenin yo'lida rayoni V.Oxunboboyev nomli sovxoz klubining mudiri Avazov Maxmarayim klubda olib borilayotgan ishlar, to'garaklar ishi, klub qoshida tashkil etilgan "Gulbahor" ansamblining faoliyatiga e'tiborsizlik qilganligi, K.Rahimov nomli sovxoz Yangi hayot qishlog'i klubining mudiri Lusatova Oytoshning ishidagi kamchiliklar sababli ishidan chetlatildi[4:7].

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida teatr san'ati sohasida bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Bu davr oshkoralik davri bo'lib, teatr sahnalaridagi hayotni haqqoniy aks ettirish, kamchiliklarning ochiq-oydin, uslub va janr rang-barangligi kuchayib bordi. Bu davrda O'zbekistonda Abror Hidoyatov teatri yetakchi o'ringa chiqdi. Teatr "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari" (Hamza), "Qora kamar", "Ziyofat" (Sh.Xolmirzayev), "Iskandar" (Navoiy dostoni asosida Sh.Rizayev pyesasi) spektakllari namoyishlari alohida sazovorga ega bo'ldi. XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida teatr san'ati sohasida bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Bu davr oshkoralik davri bo'lib, teatr sahnalaridagi hayotni haqqoniy aks ettirish, kamchiliklarning ochiq-oydin, uslub va janr rang-barangligi kuchayib bordi. Bu davrda O'zbekistonda Abror Hidoyatov teatri yetakchi

o'ringa chiqdi. Teatr "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari" (Hamza), "Qora kamar", "Ziyofat" (Sh.Xolmirzayev), "Iskandar" (Navoiy dostoni asosida Sh.Rizayev pyesasi) spektakllari namoyishlari alohida sazovorga ega bo'ldi.

1980-yillarda madaniyat muassasalarining yana bir turi Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan "Xalq havaskorlik" va "Bolalar namunali" folklor-etnografik xalq ansambllaridir. Ularga Sherobod tumani "Yangi turmush" madaniyat markazida Jumagul Jo'rayeva rahbarligidagi 1982-yilda tashkil topgan "Chechalar" folklor-etnografik ansamblini misol qilishimiz mumkin. Bu folklor-etnografik ansambli 2020-yili unvon olishga sazovor bo'lgan.

Shu yillarda Angor tumani, Angor madaniyat markazida Kumush Abduhakimova rahbarligidagi 1987-yil tashkil topgan "Angor" folklor-etnografik xalq ansamblini misol qilishimiz mumkin. Bu folklor-etnografik xalq ansambli 2020-yili unvon olishga sazovor bo'lgan[5:2].

1988-yilda Boysun tumani madaniyat markazida Habib Umarov rahbarligidagi "Boysun" folklor-etnografik xalq ansambli ham e'tiborga loyiq. Bu "Boysun" folklor-etnografik xalq ansambli 1988-yilni o'zidayoq unvon olishga sazovor bo'lgan. 1988-yilda Jarqo'rg'on tumani madaniyat markazida Muhayyo Zafariddinova rahbarligidagi "Surxon gullari" ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu "Surxon gullari" ashula va raqs xalq ansambli 1981-yilni o'zidayoq unvon olishga sazovor bo'lgan[5:2]. 1986-yilda Oltinsoy tumani madaniyat markazida Hakimjon Asomiddin rahbarligidagi "Lola" ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu "Lola" ashula va raqs xalq ansambli 1986-yilni o'zidayoq unvon olishga sazovor bo'lgan. 1989-yilda Oltinsoy tumani madaniyat markazida Hotamova Matlub rahbarligidagi "Yoriltosh" ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu "Lola" ashula va raqs xalq ansambli

1986-yilni o'zidayoq unvon olishga sazovor bo'lgan. 1980-yilda Uzun tumani madaniyat markazida Meliboyev Ehson rahbarligidagi "Rohat" ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Shu yili Ahmedov Botir rahbarligida "Rayhon" ashula va raqs xalq ansambli ham tashkil topdi. 1980-yilning o'zidayoq bu ikkala ansambl ham unvon olishga sazovor bo'lgan.

Boysunda 1969-yili Yulduz Xursandova rahbarligida tuzilgan "Shalola" ashula va raqs ansambli alohida diqqatga sazovor. "Shalola" ashula va raqs ansambli ham o'z ijodi davrida sovet mafkurasi tazyiqlariga uchragandi. Lekin boysunlik san'atkorlar o'z faoliyatlariga sodiq qolib, qadim san'at durdonalarining yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun chidam va sabr bilan o'z ijodlarini davom ettirdilar 1985-yilda "Sovet O'zbekistoni" gazetasida mashhur "Shalola" qayoqqa yo'qoldi?" degan maqola chop etildi. Bu maqola ansamblning kelajagi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada ansamblni qayta tiklash ishlari boshlanib ketdi. O'sha paytlarda Boysun rayoni partiya qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib ishlagan Allamurod Soatmurodov ansamblini tiklashda katta jasorat ko'rsatdi. Chunki milliy an'analar va qadriyatlarni anglashga qarshi kurash olib borilgan o'sha kezlarda xalq ansamblni tuzish oson ish bo'lmagan. Bunday og'ir vazifani zimmaga olish uchun katta jasorat va vatanparvarlik kerak.

Ansambl a'zolari o'z oldiga qadimiy qo'shiqlar, raqslar va urf -odatlarini to'plab, ularni ijodiy ishlab sahnaga olib chiqish kabi murakkab vazifani maqsad qilib qo'yishdan cho'chimadi. 1987-yil sentyabrda "Boysun" ansambli Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyat kunlarida ishtirok etdi. 1987-yil aprel oyida Butun Ittifoq xalq ijodiyoti festivalining respublika bosqichida "Dehqonning bir yili" nomli 30 daqiqalik dasturi bilan qatnashdi[6]. Shu yilning may-iyun oylarida O'zbekiston televideniyesi rejissyori Eduard Davirov "Boysun" ansambli dasturi asosida "Boysunda qor eriganda" nomli film-konsertni suratga oldi. 1987-yilning iyul-avgust oylarida esa "O'zbek kino xronika" studiyasi rejissyori Temirmalik Yunusov "Boysun" ansambli dasturi asosida "Unutilmas ohanglar" nomli filmni suratga oldi. Shu yili

sentyabr oyida ansambl Afg'onistonda ijodiy safarda bo'ldi[7]. 1987-yilning o'zida "Boysun" etnografik ansambliga "Xalq ansambli" unvoni berildi[8]. 1988-yilda rejissyor U.Ortiqov va T.Yunusovlar bilan hamkorlikda Boysun xalq etnografik ansambli ishtirokida "Sharq bozori" hamda ko'pkari musobaqalariga bag'ishlangan "Qadimiy o'yinlar" mavzusidagi filmlarni suratga oldi[9].

80-yillarda klub muassasalarida rang-barang tadbirlar, kechalar, ko'rik- konkurslar, ma'ruzalar, suhbatlar va boshqa tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazilib, aholining madaniy hordiq chiqarishda yaqindan yordam berishmoqdalar.

Viloyat kutubxonalari ham kitoblarni qiziqtirgan adabiyotlar bilan ta'minlash, ularni kutubxonaga ko'proq jalb qilish, ularning istaklarini o'z vaqtida qondirish maqsadida ish faoliyatlarida yangi-yangi uslublardan unumli foydalanishmoqdalar[10:3].

Qo'shni respublikalar bilan madaniy aloqalar yanada mustahkamlandi. Masalan, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari mehnatkashlari bilan uchrahuvlar, har-xil tadbirlar muntazam ravishda o'tkazildi. Bu tadbirlarni uyushtirishda partiya, sovet va jamoatchi tashkilotlarning ham katta hissalari bor. Bu uchrashuvlar millatlararo munosabatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada takomillashtirish va jamiyatimizni ma'naviy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bulardan tashqari viloyat badiiy havaskorlik jamoalari o'z mahoratlari bilan nafaqat viloyatda, balki jumhuriyat hamda xorijiy mamlakatlarda ham shuhrat qozonmoqda. Jumladan, Boysun rayon "Boysun" folklor – etnografik xalq ansambli jamoasi shu yilning avgust oyida Angliyada o'tkazilgan jahon folklor bayramida katta muvaffaqiyat bilan ishtirok etib qaytdi.

Mannon Uyg'ur nomidagi o'zbek Davlat musiqali drama teatri ijodiy kollektivi 1990-yilga planlashtirgan 4 ta spektaklini ham o'z vaqtida yaratdi. Bular: I.Tursunovning asari asosida N.Pardayev "Bu telba dunyo", X.Muhammad komediyasi asosida M.Ravshanov "Xotinlar hazili", Sh.Boshbekovning "Taqdir eshigi", Xudoyberdiyevning "Munajjim" asarlarini

sahnalashtirildilar[10:3]. Surxondaryo viloyat madaniyat boshqarmasining ushbu hisobotida madaniyat muassasalarining o'tgan 1990-yilda olib borgan asosiy ishlari, o'z faoliyatlarini yanada aktivlashtirishga qarata o'tkazgan tadbirlariga alohida o'rin berilgan[10:4].

1990-yil Surxondaryo viloyat madaniyat muassasalari III Butunittifoq xalq ijodiyoti festivali doirasida bir qancha tadbirlarni o'tkazildi. 90-yil boshidayoq ushbu festival doirasida viloyat miqyosida o'tkaziladigan tadbirlar rejalari va nizomi ishlab chiqildi, bu tadbirlarni o'tkazish tashkil qo'mitasi va hakamlar hay'ati viloyat madaniyat boshqarmasi kengashida tasdiqlangan edi. Bu tadbirlarni reja va nizomlaridan kelib chiqib viloyat miqyosida bir qancha ko'rik – konkurskar, ommaviy tadbirlar o'tkazildi. Shular jumlasiga 12-15-mart kunlari raqs konkursi, 17-mart kuni Termiz shahar madaniyat uyida xor jamoalarining 21-martda "Navro'z" ommaviy sayli, 14-aprelda Denov shahar madaniyat va istirohat bog'ida badiiy-agit brigadalarning, 10-may kuni havaskor teatrlarning, 13-14-may kunlari Sho'rchi shahrida ashula va raqs ansamblarining, 9-iyunda Sariosiyo tumanida maqomchilarning, sentyabr oyida qiziqchi va askiyabozlar ko'rik – konkurslari va boshqa tadbirlari o'tkazildi[10:5]. Shu eilning 13-14-aprel kunlari Denov shahar madaniyat istirohat bog'ida o'tkazilgan badiiy – agitbrigadalar bo'yicha o'tkazilgan ko'rik tanlov alohida diqqatga sazovordir. Bu ko'rik tanlovda viloyatimizdagi hamma tumanlar badiiy-agitbrigadalari qatnashdilar bilan qatnashdilar. O'z chiqishlarida turmushda mavjud bo'lgan nuqsonlarni hajv yo'li bilan tanqid qilindi. Ko'rik – tanlovda Sariosiyo tumanining "Ur to'qmoq" agitbrigada jamoasi faxrli 1-o'rinni, Sherobod rayonining "Durbin" agitbrigada jamoasi 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. Ko'rik – tanlovda g'olib chiqqan "Ur to'qmoq agitbrigada kollektivi viloyat miqyosida o'tkazilgan ko'rik – tanlovda ishtirok etdi[10:6].

1990-yilda viloyatda 502 badiiy havaskorlik kollektivi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu kollektivlarning ishtirokchilari 6020 kishini tashkil qiladi. 1990-yilda bu kollektivlar

tomonidan 3206 konsert tashkillashtirildi. Hozirda viloyatda 9 ta “xalq” unvoniga sazovor bo‘lgan ashula va raqs ansambllari mavjud. Bu xalq kollektivlari muntazam ravishda mehnatkashlarni madaniy xordiq chiqarishlariga yaqindan yordam berib kelishmoqdalar. Bu kollektivlarning repertuarlaridan o‘zbek, rus, tojik, turkman va boshqa millatlarning qo‘shiqlari o‘rin olgan. Ayniqsa, tomoshabinlarning hurmatiga sazovor bo‘layotgan Boysun rayonining “Shalola”, “Boysun”, Sho‘rchi rayonining “Kumush tola”, Oltinsoy rayonining “Oqarbuloq” va boshqa kollektivlaridir.

Surxondaryo viloyat badiiy havaskorlik jamoalari nafaqat viloyatda, balki jumhuriyatda, qardosh jumhuriyatlarda hamda xorijiy mamlakatlarda ham shuxrat qozondi. Jumladan, Boysun rayon “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli jamoasi shu yilning avgust oyida Angliyada o‘tkazilgan jahon folklor bayramida katta muvaffaqiyat bilan ishtirok etib qaytdi[10:8].

Surxondaryo viloyat madaniyat boshqarmasi va uning organlari joylarda konsert programmalarini yangilash, ularni klassik va chuqur mazmunli kuy va qo‘shiqlar bilan ta‘minlanishiga ham katta e‘tibor berishmoqda. Bu borada joylarda badiiy sovetlar tashkil qilingan bo‘lib, konsert programmalarini nazorat qilib borildi. Jumladan ular oilaviy bayramlarda xizmat qilayotgan badiiy kollektivlarni ham o‘z nazoratlariga olganlar.

Yildan-yilga “O‘zbekkonsert” Respublika uyushmasi va O‘zbekiston Davlat filarmoniyasining yo‘llanmasi bilan viloyatimizga gastrolga konsert gruppalarining kelishlari ko‘paymoqda. Bularning hammasi viloyat madaniyat boshqarmasida registratsiyadan o‘tishadi va bizning tasdiqlagan mashrut bilan kolxoz, sovxozlarda konsert qo‘yishmoqda. Badiiy sovet tomonidan ularning konsert qo‘yishlari, biletlarni sotishlari nazorat qilinadi.

Bulardan tashqari tasviriy san‘atni, xalq amaliy san‘atni yanada rivojlantirish uchun ham bir qancha ishlar olib borildi. 1990-yillar oxirlariga kelib viloyatda bu soha bo‘yicha 32 to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu

to‘garaklarda 462 nafar kishi qatnashgan[10:10].

1990-yillarda madaniyat muassasalarining biri muzeylarida ham ozgarishlar bo‘ldi. Surxondaryo viloyatda tasviriy san‘at sohasini tashviqot qilishda viloyat o‘lkashunoslik muzeyining ham katta hissasi bor. Yil davomida bu yerda bir qancha ko‘rgazmalar ekskursiyalar va boshqa tadbirlar tashkil qilindi. O‘tkazgan tadbirlarning soni yil davomida 2400 dan ortdi[10:10-11].

1990-yillarda hanuzgacha sovet davlati tarkibida bo‘lsada, xalqimiz orasida mustaqillik g‘oyasi kuchayib bordi. Bu fikrning isboti tarsida quyidagilarni aytishimiz mumkin: “O‘zbekiston SSJ Davlat tili haqida”gi Qonunining tadbiriq etilishi to‘g‘risida. Surxondaryo viloyat madaniyat boshqarmasining kengaytirilgan 1990-yil, 19-iyun № 6/3 sonli kengashida “O‘zbekiston SSJ Davlat tili haqida”gi Qonun muhokoma etilib, ushbu qonunni bajarish yuzasidan bir qator tadbirlar va 9 kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiya raisi etib, viloyat madaniyat boshqarmasining boshlig‘i A.Ibrohimov tayinlandi.

Ushbu qonunni bajarish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi: Madaniyat boshqarmasi faoliyati jarayonini va kengash, majlislarini o‘zbek va rus tillarida olib borildi. Rasmiy hujjatlar va muhriy qog‘ozlar o‘zbek tilida chop etila boshlandi. Madaniyat sohasidagi barcha muassasalarda shu muassasalarning nomlarini, ishlash vaqtini, ish xonalardagi mas‘ul xodimlarning vazifalari va ismu-shariflarini bildiruvchi lavhalar o‘zbek tilida yozdirilib, tegishli joylarga ilib qo‘yildi. Sahna, kino va ijrochilik san‘atini targ‘ib etadigan e‘lonlar va afishalarning Respublika Davlat tili va rus tilida yozilishiga katta e‘tibor berildi. Klub muassasalari, kutubxonalar, kinoteatrlar, hiyobonlar va dam olish bog‘laridagi jami ko‘rgazmali vositalar hamda targ‘ibiy e‘lonlar Davlat tilida yozila boshlandi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, o‘rganilgan tarixiy bosqichda janubiy mintaqalarda madaniy sohada muhim o‘zgarishlar kuzatildi. San‘atning turli janrlari, adabiyot va umumiy madaniyatda bir qadar

yuksalish sezildi. Bu yutuqlarning asosi, tabiiyki, soha xodimlarining fidokorona mehnati, ilmiy izlanishlari va betinim ijodiy faoliyatlari bilan bog'liq edi. Ushbu rivojlanishning ijobiy jihatlari bilan birga, afsuslanarli tomoni shundaki, bu o'sish jarayonida faqat sovet mafkurasining g'oyalari ustunlik qildi. Kommunistik ideologiyaning hukmronligi esa aholining ma'naviy olami va madaniy hayotiga jiddiy cheklovlar qo'yib, ularning erkin rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Sovet davlati mafkurachilari o'zbek zaminida qilgan razil, qabohatli, qoldirgan asorati yana shundaki, namoyon bo'ladiki, ular

xalqimizning bebaho ma'naviy qadriyatlari, milliyligini yo'q qilishga harakat qildi. Ammo bizning mehnatkash, sabrli, matonatli xalqimiz bu to'siqlarga qarshi chiqa oldi va xalqimiz o'zligiga qaydi. Madaniyat sohasida ham o'zligini namoyon qilib kelmoqda.

Shu tariqa, 1980-1990-yillar davomida Surxondaryo viloyatida madaniyat muassasalari faolligi va tadbirlari orqali mahalliy aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida madaniyatga bo'lgan qiziqish va talab oshdi. Bu davrda hosil bo'lgan madaniy urf-odatlar va yangi tashabbuslar, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 4-рўйхат, 100-иш, 102-103 varaqlar.
2. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 13-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 1-2 varaqlar.
3. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 13-фонд, 1-рўйхат, 9-иш, 13-varaqlar.
4. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 13-фонд, 1-рўйхат, 28-иш, 7-varaqlar.
5. Сурхондарё Вилоят Маданият Бошқармаси архиви, 5-жилд, 2-varaqlar.
6. Naimov M. Qadim Surxon navolari. – Toshkent: San'at, 2006. – B. 13.
7. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1987 yil 30-sentabr.
8. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1987 yil 27-dekabr.
9. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1988 yil 13-oktabr.
10. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 4-рўйхат, 182-иш, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 11-varaqlar.